

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimi va farmatsevtikani rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, sohani tubdan isloh etishga qaratilgan dasturlar ijrosini muvaffaqiyatli ta‘minlash borasidagi ko‘p yillik samarali mehnati, o‘zining bilim va salohiyati, professional mahorati bilan diagnostika va davolash amaliyotida zamonaviy, yuksak texnologik usullarni keng qo‘llash, aholi salomatligini ishonchli muhofaza qilish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shib kelayotgani, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yo‘lidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Abdinazarova Karamat — Paxtakor tumanidagi “Mingchinor” oilaviy shifokorlik punkti oilaviy shifokori, Jizzax viloyati
Ergashev Baxtiyor Berdaliyevich — Respublika perinatal markazining chaqaloqlar neonatal xirurgiyasi bo‘limi mudiri

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Ziyayev Maxammad Mamirovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining

Toshloq tumani bo‘limi haydovchisi, Farg‘ona viloyati

Irgashev Shuxrat Boisovich — Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi preventiv tibbiyot — valeologiya asoslari kafedrası professori

Yaqubova Rano Abdullayevna — Tuproqqal‘a tumanidagi “Shixlar” oilaviy shifokorlik punkti mudiri, Xorazm viloyati

I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Gadayev Abdigaffar — Toshkent davlat tibbiyot universitetining oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrası professori

Kabulov Mels — Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutining xirurgik kasalliklar va transplantologiya kafedrası professori

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Abdusalomova Kimiyo Kushanovna — Ko‘kdala tumanidagi “Guliston” oilaviy shifokorlik punkti oilaviy shifokori, Qashqadaryo viloyati

Akbarov Murat Turgunovich — Namangan viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot

markazining anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limi mudiri

Aliyeva Marxabaxon Nosirovna — Oltiariq tumanidagi 89-oilaviy poliklinikasi mudiri, Farg‘ona viloyati

Gaffarov Isokul Sayitkulovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Payariq tumani bo‘limi “Chelak” punkti haydovchisi, Samarqand viloyati

Djabbarova Dodar Raximovna — Yashnobod tumanidagi “Lor mama” xususiy klinikasi bosh shifokori, Toshkent shahri

Yerimbetova Indira Oralbayevna — Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining onkogematologiya bo‘limi mudiri

Isaqova Barnoxon Anvarovna — Buloqboshi tumani tibbiyot birlashmasining shoshilinch tibbiy yordam bo‘limi pediatri, Andijon viloyati

Nurova Zamira Annakulovna — Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filiali tibbiy biologiya va gistologiya kafedrası mudiri, Surxondaryo viloyati

Raximov Baxodir Baxranovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Xatirchi tumani bo‘limi haydovchisi, Navoiy viloyati

Suyarova Zebo Isroilovna — Nurobod tumani tibbiyot birlashmasining bolalar bo‘limi mudiri, Samarqand viloyati

I darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Gulamova Risolat Sadikovna — Sayxunobod tumanidagi 21-oilaviy poliklinikasi patronaj doyasi, Sirdaryo viloyati

Nazarov Abdukayum Abduxalilovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Yangi Namangan tumani bo‘limi feldsheri, Namangan viloyati

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Aliyeva Jamila Azadovna — Xiva shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi shifokor-onkoginekologi, Xorazm viloyati

Alimjanov Nusratdjan Amildjanovich — Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining endokrin xirurgiya bo‘limi mudiri

Altibayev Uyg‘un Uchkunovich — Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining neyroxirurgiya bo‘limi mudiri

Axmadjonov Orifjon Ne‘matjonovich — Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining anesteziologiya va reanimatsiya bo‘limi mudiri

► Davomi 2-beta

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH CHORALARI TO‘G‘RISIDA

Davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, ularning moddiy manfaatdorligini oshirish, samarali ishlashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish maqsadida **qaror qilaman:**

I. Maqsadlar

1. Quyidagilar tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

- tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, ularning moddiy manfaatdorligini oshirish;
- aholiga sifatli va samarali tibbiy xizmat ko‘rsatayotgan fidoyi xodimlarga qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari joriy etish;
- istiqbolli yosh mutaxassislar o‘z kasbiy malakasini oshirib borishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish;
- “Shifokor — aholi salomatligi posboni” shiori ostida jamiyatda ularning nufuzini oshirish.

II. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash

2. 2026-yildan boshlab davlat tibbiyot muassasalari xodimlari Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan Tibbiyot muassasalarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan

har yili **mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorida** rag‘batlantirilsin.

3. Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan har yili quyidagi nominiyasiyalari bo‘yicha tanlov o‘tkazilsin:

- “Eng yaxshi respublika shifoxonasi rahbari”, “Eng yaxshi hududiy sog‘liqni saqlash organi rahbari”;
- har bir hududda:
 - “Eng yaxshi tuman (shahar) sog‘liqni saqlash organi rahbari”, “Eng yaxshi oilaviy poliklinika rahbari”, “Eng yaxshi tuman (shahar) shifokori” va “Eng yaxshi tuman (shahar) o‘rta tibbiyot xodimi”;
 - “Eng yaxshi oilaviy poliklinika”, “Eng yaxshi tuman (shahar) shifoxonasi” va “Eng yaxshi hududiy shifoxona”.

4. Belgilansinki:

- tanlov natijalari asosida g‘oliblar quyidagi miqdorlarda Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) hisobidan bir martalik rag‘batlantiriladi:

- tibbiyot muassasalari — 500 million so‘m;
- tibbiyot va rahbar xodimlar — 30 million so‘m;

► Davomi 2-beta

Munosabat

O‘ZBEKISTON – AQSH HAMKORLIGINING YANGI SAHIFASI



Prezidentimizning AQSHga amaliy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar, muloqotlar, uchrashuvlar haqida bugun ko‘p gapirilyapti. Zero, bu safar oddiy tashrif emas, balki ikki xalg, ikki sivilizatsiya, ikki iqtisodiy qudrat orasidagi ishonch va hamkorlikning yangi bosqichidir. Tashrif nafaqat siyosiy dialog, balki iqtisodiy munosabatlarda yangi, misli ko‘rilmagan imkoniyatlar eshigini ochdi.

davlatlari uchun suverenitetni saqlash, hududiy yaxlitlikni ta‘minlash va global kuchlar o‘rtasida muvozanatli tashqi siyosat yuritish imkonini beradi.

► Davomi 2-beta

Kun mavzusi

BILIM TAJRIBAGA, ORZU NATIJAGA AYLANADI

Prezidentimizning joriy yil 14-fevraldagi “Oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ko‘p yillardan buyon muhokamada bo‘lgan muhim vazifalardan biri — oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari uchun barqaror ish o‘rni yaratish masalasiga amaliy javob bo‘ldi. Qonuniy asos topgan bu mexanizm ta‘lim tizimi bilan mehnat bozorini yaqinlashtirish borasida katta umid uyg‘otdi. Shundan buyon bir necha oy vaqt o‘tdi. Dastlabki tajriba va natijalar o‘zini ko‘rsatdi. Ayrim jihatlar esa yangicha yondashuvni talab qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining joriy yil 3-noyabrdagi qarori bilan esa mazkur qarorga ayrim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, tizim yanada mukammal shaklga keltirilmoqda. Har bir bitiruvchiga kelajakdagi ishlab chiqarish zanjirining bir halqasi, har bir tadbirkorga shu halqaning harakat manbai deb qarasa, masalaning mohiyati teranroq anglashiladi.

► Davomi 5-beta

O‘SISH, O‘ZGARISH VA O‘ZLIK YO‘LI

YANGI O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR HAQIDA AYRIM CHIZGILAR



O‘tayotgan 2025-yil mamlakatimiz tarixida yangi sahifa ochdi. Muhimi, yangi O‘zbekistonda shu vaqtgacha amalga oshirilgan islohotlar natija bera boshlagani joriy yilda ko‘p bora o‘z tasdig‘ini topdi. Qolaversa, o‘sinh va o‘zgarishlarning yangi bosqichi boshlandi. Masalan, O‘zbekiston va Yevropa ittifoqi o‘rtasida uzoq kutilgan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi imzolandi.

Davlatimiz rahbari 20-oktabr kuni Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, bu yerda ekspozitsiyalar orqali xalqimizning boy tarixiy va ma‘naviy merosini keng namoyish etishga qaratilgan ishlar bilan tanishdi. Ushbu markaz yangi O‘zbekiston

yo‘lini, uning maqsadi va orzularini o‘zida mujassam etgan. Daryolar vaqti-vaqti bilan o‘zanini o‘zgartirib turadi. Buning turlicha sabablari bor. Shulardan biri daryo suvining kamayishi yoki sel kelishidir. Xalqlaming taraqqiyoti ham xuddi shunday. Muayyan vaqt turg‘unlik yoki so‘nish kuzatiladi. Xalqimiz ham uzoq yillar ana shunday turg‘unlikni boshdan kechirdi. Hozir uning omillarini sanab o‘tirmoqchi emasmiz. Demoqchimizki, bugun yana katta karvon kabi Uchinchi Uyg‘onish sari yo‘l oldik. Islom sivilizatsiyasi markazidagi beshta bo‘limda ajdodlarimiz bosib o‘tgan o‘sha yo‘l va biz ko‘zlagan manzil o‘z aksini topgan. Ya‘ni u yerda “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchı Renessans”, “Ikkinchi Renessans”, “O‘zbekiston XX asrda” va “Yangi O‘zbekiston — yangi Renessans” bo‘limlari tashkil etilgan. Bo‘limlar nomining o‘ziyoq ko‘z oldimizda shonli o‘tmish va yorug‘ kelajakni namoyon qiladi. Birgina “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”ni olaylik. Bundan 3000 yillar avval ajdodlarimiz insoniyatga “Avesto”ni tortiq etgan edi. Solnomachilarning aytishicha, o‘sha davrda turli g‘oyalar, aqidalar avj olgan. G‘oyaviy kurashlar ta‘sirida taraqqiyot, insoniyat hayoti chigal holatga kelib qolgan. Shunday vaqtda “Avesto” timsolida umuminsoniy g‘oyalar paydo bo‘ladi. U insonparvarlik falsafasi orqali qarashlar, manfaatlarni uyg‘unlashtirdi. Ezgulik jamiyatiga asos soldi.

► Davomi 3-beta

KOSMIK MONITORING – iqtisodiy imkoniyatlar eshigi



4

IJTIMOIY “LIFT”LAR: SALOHİYAT VA ADOLAT MEZONI



6

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

Baxadixanov Muxamedzarif Muxamed Kabirovich — Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining operatsiya bo‘limi mudiri

Djumayeva Mexriniso Abdulxamidovna — Qumqo‘rg‘on tumanlararo perinatal markazining chaqaloqlar reanimatsiyasi bo‘limi mudiri, Surxondaryo viloyati

Djumaniyazov Djavoxir Azatbayevich — Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining endoskopiya bo‘limi mudiri

Yesenbayev Puxarbay Qazakbayevich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Qonliko‘l tumani bo‘limi avtokorxonasi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Imomberdiyeva Rajabuvvi Biyanovna — Chirchiq shahridagi “Dilchehra” xususiy klinikasi rahbari, Toshkent viloyati

Qurbonov Doniyor Oltinovich — Qorako‘l tumani tibbiyot birlashmasining reanimatsiya bo‘limi mudiri, Buxoro viloyati

Qurbonov Hoshim Narzimuradovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Baxmal tumani bo‘limi haydovchisi, Jizzax viloyati

Mavlonova Extibor Shukrulloevna — Respublika tez tibbiy yordam markazining Zarafshon shahar bo‘limi shifokori, Navoiy viloyati

Madreymova Gulparshin Imamaddinovna — Taxtako‘pir tumanidagi “A.Adilov” oilaviy shifokorlik punkti patronaj hamshirasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Maxkamov Maxkamjon Kozimovich — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining qon tomir neyroxirurgiyasi bo‘limi mudiri

Ochilov Anvar Samarovich — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Jizzax viloyati filiali anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limi mudiri

Reshetnyak Marina Yuryevna — Yakkasaroy tumanidagi 58-oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori, Toshkent shahri

Rustamov Baxt Yerashimovich — “Ezgu niyat” ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining yurak-qon tomir jarrohi, Toshkent shahri

Sattarova Gulnara Alobidinovna — Farg‘ona viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining proktologiya bo‘limi jarrohi

Safarov Sunnatulla Satorovich — Ishtixon tumani sog‘liqni saqlash bo‘limi mudiri, Samarqand viloyati

To‘lakov Ravshan Panjiyevich — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Qashqadaryo viloyati filiali direktori

Umurzakov Kosimjon Xolmirzayevich — Andijon shahridagi “Great Medical” mas’uliyati cheklangan jamiyati shifokori, Andijon viloyati

Hotamov Bahodir Ravshanovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining G‘ijduvon tumani bo‘limi “Og‘itma” punkti haydovchisi, Buxoro viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abas-zada Nigina Jahangir qizi — UNFPA tashkilotining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy vakili

Avazov Komiljon Jurayevich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Shahrisabz tumani bo‘limi haydovchisi, Qashqadaryo viloyati

Atajanova Ra‘no Shadibayevna — Mirzacho‘l tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi patronaj hamshirasi, Jizzax viloyati

Varfolomeyeva Tatyana Aleksandrovna — U.Q.Qurbonov nomidagi Respublika bolalar ruhiy asab kasalxonasi bo‘lim mudiri

Jaybergenova Gulnara Muratbayevna — Qorao‘zak tumani tibbiyot birlashmasining tug‘uruq bo‘limi neonatologi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Korneliya Beker — Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatining O‘zbekistondagi vakolatxonasi sog‘liqni saqlash dasturi direktori

Obeyd Mustafa — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining kardioxirurgiya bo‘limi mudiri

Rexina Mariya Kastillo Rodrigues — UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari

Sankaves Dmitriy — Belarus Respublikasi “Ona va bola” ilmiy-amaliy markazining bolalar anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limi anesteziolog-reanimatologi

Suxova Lyudmila Vyacheslavovna — Respublika tez tibbiy yordam markazining Bo‘stonliq tumani bo‘limi katta feldsheri, Toshkent viloyati

Turdaliyeva Difuza Mamadaliyevna — Pop tumanidagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi katta hamshirasi, Namangan viloyati

Xalak-Dina Ashina — Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi rahbari

Yusupov Sulaymonqul Ibragimovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Sirdaryo viloyati filiali haydovchisi

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Avazova Muqaddas Binoyevna — Angor tumanidagi “Q.Tulakov” oilaviy poliklinikasi patronaj hamshirasi, Surxondaryo viloyati

Jumanov Zoir Yuldashovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Gurlan tumani bo‘limi haydovchisi, Xorazm viloyati

Jurayeva Sadoqat Uktamovna — Navoiy shahridagi “Logo Effect Sadoqat” imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan xususiy muassasasi rahbari, Navoiy viloyati

Kambarova Sanobar Kurbonboyevna — Sardoba tumanidagi 26-oilaviy poliklinikasi patronaj hamshirasi, Sirdaryo viloyati

Kamolova Xulkarxon Sadriiddinova — Yangiqo‘rg‘on tumanidagi 61-oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori, Namangan viloyati

Karimov Komil Olimjonovich — Parkent tumanidagi 44-oilaviy poliklinikasi mudiri, Toshkent viloyati

Kurbonova Radxa Raxmatullayevna — Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo viloyati filiali chaqaloqlar reanimatsiyasi bo‘limi mudiri

Kuchkarova Munira Kaxramanovna — Salomatlik va strategik rivojlanish instituti direktorining o‘rinbosari

Mavlyanova Shaxnoza Zakirovna — Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ilmiy laboratoriyasi mudiri

Marimova Erkinoy Koziyevna — Beruniy tumani tibbiyot birlashmasining chaqaloqlar bo‘limi mudiri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Mexmonaliyeva Nodira Tolibovna — Dang‘ara tumanidagi 31-oilaviy poliklinikasi mudiri, Farg‘ona viloyati

Polvanova Adolat Otoboyevna — Yangiariq tumani tibbiyot birlashmasining derioxanasi bo‘lim boshlig‘i, Buxoro viloyati

Rajabova Mamlakat Ikromovna — Romitan tumani tibbiyot birlashmasi bosh hamshirasi, Buxoro viloyati

Tashbayev Nuriddin Sarayevich — Sanitariya-epidemiologik osoyishlik va jamoat salomatligi qo‘mitasining strategik rejalashtirish, axborot-tahlil va ijro intizomi bo‘limi boshlig‘i

Umarov Baxrom Yaminovich — Andijon viloyati ftiziatriya klinik shifoxonasining davolash bo‘limi ftiziatri

Fozilbekov Ruzikul Anarkulovich — Toshkent shahridagi “Akfa medline” klinikasining ginekologiya bo‘limi mudiri

Yuldasheva Gulnora Djasurovna — Respublika tez tibbiy yordam markazining Jizzax viloyati filiali shifokori

Yusupov Saminjon Absattarovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Quyi Chirchiq tumani bo‘limi haydovchisi, Toshkent viloyati

Yaxshilikova Feruza Nuridinovna — Bulung‘ur tumani tibbiyot birlashmasi bosh hamshirasi, Samarqand viloyati

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Axmadiyev Edvard Erikovich — Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining akusher-ginekologi

Olimjonov Kamoliddin Alisher o‘g‘li — Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining transplantatsiya bo‘limi shifokor-gematologi

Rajabov Doniyorbek Baxtiyor o‘g‘li — Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo‘yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazining lor shifokori

“Shuhrat” medali bilan

Ashirova Muxabbat Xolmatovna — Respublika tez tibbiy yordam markazining Yunusobod tumani bo‘limi shifokori, Toshkent shahri

Ashurov Abdug‘afor G‘ulomovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 8-noyabr

Chust tumani bo‘limi “Axcha” punkti haydovchisi, Namangan viloyati

Jabborova Dilshoda Rabimovna — Nurota tumanidagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi xo‘jalik bekasi, Navoiy viloyati

Ibragimov Nasridinbek Rasulovich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Andijon viloyati filiali haydovchisi

Kazakov Ruzimurot Elomonovich — Koson tumanidagi “Andabozor” oilaviy shifokorlik punkti o‘rta tibbiyot xodimi, Qashqadaryo viloyati

Kurbanova Mavluda Razikovna — “Buxoro dori-darmon” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 1-markaziy derioxanasi bo‘lim boshlig‘i, Buxoro viloyati

Maxmudov Abrorxon Saidmusayevich — Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi mudiri

Mirzaidov Umid Mirkomil o‘g‘li — “Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi” loyiha ofisining guruh rahbari

Samadov Furkatjon Nosibjanovich — Bolalar milliy tibbiyot markazining neurologiya bo‘limi shifokor-nevrologi

Safarov Ahror Zuvaydillo o‘g‘li — Milliy tibbiyot markazining transplantologiya va angioxirurgiya bo‘limi mudiri

Sultanov Alijon Tursunbayevich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Toshkent shahar filiali haydovchisi

Tashmamatov Sherzod Xolmatovich — Guliston tibbiyot klasterining nefrologiya-gemodializ bo‘limi shifokori, Sirdaryo viloyati

Temirova Sevara Orifjon qizi — Qo‘shrabot tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi patronaj doyasi, Samarqand viloyati

Toshboyev Xusniddin Numonjonovich — Farg‘ona tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘i, Farg‘ona viloyati

Turayev Bobur Batir o‘g‘li — Toshkent davlat tibbiyot universitetining bolalar ko‘p tarmoqli klinikasi kardioxirurgiya bo‘limi kardiolarrohi

Tursunkulov Ilxomjon Kamalovich — Milliy tibbiyot markazining intervension aritmologiya bo‘limi mudiri

Xusanbayev Xasanjon Shavkatovich — Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining operatsiya bo‘limi oftalmologi

Elamanov Kenja Gulbayevich — Respublika tez tibbiy yordam markazining Uzun tumani bo‘limi haydovchisi, Surxondaryo viloyati

Esonov Aziz Raximberdiyevich — Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi mudiri

Yuldasheva Mufazzalxon Shokirovna — Xo‘jaobod tumanidagi “To‘raobod” oilaviy shifokorlik punkti patronaj hamshirasi, Andijon viloyati.

SH.MIRZIYOYEV

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH CHORALARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

b) tanlov g‘oliblari **Tibbiyot xodimlari kuni** arafasida e‘lon qilinadi, ularni **davlat mukofotlariga tavsiya etish** hamda **xorijdagi** nufuzli ta‘lim va ilmiy tashkilotlarda Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan **menejerlik va boshqa zamonaviy dasturlar asosida o‘qitish** amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi;

v) “Eng yaxshi respublika shifoxonasi rahbari”, “Eng yaxshi tuman (shahar) sog‘liqni saqlash organi rahbari” va “Eng yaxshi oilaviy poliklinika rahbari” nominatsiyalari bo‘yicha tanlov g‘oliblari **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni** bilan taqdirlashga tavsiya etiladi.

5. **2026-yil 1-apreldan boshlab** davlat tibbiyot muassasalarining ish vaqti rejimi **resh kunlik** ish haftasiga o‘tkazilsin. Bunda tibbiyot muassasalari ish faoliyatining uzluksizligini ta‘minlash uchun bayram va dam olish kunlari navbatchilik asosida ishlash yo‘lga qo‘yiladi.

6. Belgilab qo‘yilsinki, **2026-yil 1-yanvardan boshlab** davlat tibbiyot muassasalarida Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan:

a) tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan va uning ijobiy samarasiga erishgan tuman (shahar) tibbiyot muassasalari shifokorlariga bazaviy hisoblash miqdorining **50 baravari** miqdorida **bir martalik pul mukofoti** beriladi;

b) davlat tibbiyot muassasalarida kamida 15 yil ish stajiga ega bo‘lgan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining farzandlariga respublika hududidagi oliy ta‘lim tashkilotlarida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha yillik kontrakt summasining **30 foizi** miqdorida, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravaridan oshmaydigan qismi qoplab beriladi;

v) tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining **xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazasida indekslanuvchi** va **yuqori impakt-faktorli jurnallarda** maqolalarni chop etish bilan bog‘liq xarajatlari to‘liq qoplab beriladi;

g) haryili davlat tibbiyot muassasalarida kamida 15 yil ish stajiga ega bo‘lgan **500 nafar** tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini uy-joy uchun mas‘ul hamda shaxsiy ipoteka krediti asosida sotib olinadigan **uy-joyning dastlabki badal to‘lovining 25 foizi** qoplab beriladi.

7. Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining milliy akkreditatsiyadan o‘tgan davlat tibbiyot muassasalari xodimlariga 2026-yil

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 9-noyabr

1-yanvardan boshlab lavozim maoshining **10 foizi miqdorida** oylik ustama to‘lash to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilsin.

8. **2026-yil 1-yanvardan boshlab** davlat tibbiyot muassasalarining tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga quyidagi qo‘shimcha imtiyozlar berilsin:

a) davlat tibbiyot muassasalarida kamida 3 yil ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bir yilda bir marotaba **bepul yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam** ko‘rsatish;

b) davlat tibbiyot muassasalarida kamida 15 yil ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarga Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda tibbiyot muassasasining mablag‘lari hisobidan bir yilda bir marotaba respublika hududidagi sanatoriylarga **bepul yo‘llanma** berish;

v) barcha turdagi davlat xizmatlari uchun to‘lovlar miqdorini **ikki barobar** kamaytirish.

III. **Qaror ijrosini tashkil etish, ta‘minlash va nazorat qilish**

9. Sog‘liqni saqlash vazirligi **bir oy muddatda** mazkur qarorda belgilangan imtiyozlarni qo‘llash hamda tanlov g‘oliblarini aniqlash bo‘yicha mezon va tartib-taomillarni tasdiqlash choralarini ko‘rsin.

10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi **2026-yildan boshlab**:

a) mazkur maqsadlar uchun har yili Jamg‘armaga qo‘shimcha indeksatsiya qilib beriladigan **100 milliard so‘m** mablag‘ ajratish;

b) Davlat budjeti parametrlarida mazkur qaror bilan belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag‘larning ko‘zda tutilishini ta‘minlash.

11. Sog‘liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.

12. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul hamda shaxsiy javobgar etib sog‘liqni saqlash vaziri A.A.Xudayarov belgilansin.

13. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas‘ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining tibbiyotni isloh qilish bo‘yicha o‘rinbosari T.A.Aliyeva zimmasiga yuklansin.

SH.MIRZIYOYEV

O‘ZBEKISTON – AQSH HAMKORLIGINING YANGI SAHIFASI

Boshlanishi 1-betda

Iqtisodiy jahhada “C5+1” formatining o‘rni katta. AQSH mintaq bilan energetika, transport va logistika, raqamli iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va suv resurslarini boshqarish kabi yo‘nalishlarda investitsion sheriklikni rivojlantirishga intiladi.

Xavfsizlik yo‘nalishida “C5+1” terrorizm, chegara xavfsizligi, ekstremizm va giyohvandlik moddalari savdosiga qarshi kurash hamda kiberxavfsizlik kabi masalalarda qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Markaziy Osiyoga muqobil rivojlanish yo‘lini taklif etish orqali geosiyosiy ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, “C5+1” formati doirasida madaniy va ma‘naviy hamkorlikni rivojlantirishga ham e‘tibor qaratiladi. Ta‘lim sohasida hamkorlik, ekologiya va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash kabi yo‘nalishlar orqali mintaq yoshlari dunyo-qarashini kengaytirish, innovatsion fikrlash



va global maydonda raqobatbardosh bo‘lishga tayyorlash ko‘zda tutilgan.

Yangi muloqotning mazmun-mohiyati sifatida AQSH Prezidenti Donald Trump

ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali quyidagi postni e‘lon qildi:

“Amerika Qo‘shma Shtatlari va O‘zbekiston o‘rtasidagi misli

ko‘rilmagan savdo iqtisodiy kelishuvni e‘lon qilishdan mamnunman. Yaqin uch yil ichida O‘zbekiston Amerikaning muhim mineral, aviatsiya, avtomobil butlovchi qismlari, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, energetika va kimyo, axborot texnologiyalari va boshqa muhim tarmoqlariga qariyb 35 milliard dollar, kelgusi o‘n yilda esa 100 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritadi va xaridlarni amalga oshiradi.

Men O‘zbekistonning yuksak hurmati Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildiraman. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi uzoq muddatli va samarali munosabatlarni intizorlik bilan kutamiz!”. Ushbu so‘zlar, shubhasiz, global iqtisodiy maydonda O‘zbekistonning yangi maqomini belgilaydi.

Bu tashrif haqiqatan ham samarali va tarixiy ahamiyatga ega. Mutaxassislar AQSH kompaniyalarining bugungi qiziqishi va qat‘iyati 2010-yillar boshidagi holatdan mutlaqo farq qilishini

ta’kidlamogda. Bugun amerikalik investorlar aniq loyihalarga kirishmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillardagi tub iqtisodiy va ma‘muriy islohotlar, tadbirkorlikka keng yo‘l ochilishi, soliq yukining kamaytirilishi va huquqiy kafolatlar ishlab chiqilishi xalqaro sheriklarda ishonch uyg‘otdi. Bu jarayonda davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi, ochiq muloqot qilish siyosati va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslari hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, davlat rahbarlari darajasida o‘rnatilgan siyosiy aloqlar tufayli ikki tomonlama hamkorlik aniq yo‘nalishlar asosida rivojlanmoqda.

Muzokaralar natijasida viza rejimini yengillashtirish, shuningdek, ikki davlat poytaxtlari o‘rtasida doimiy aviataqnovlarni yo‘lga qo‘yish masalalari ham muhokama qilindi. Bu nafaqat biznes va turizm aloqalarini, balki madaniy-gumanitar muloqotni ham yangi bosqichga ko‘taradi.

Shu tarzda siyosiy iroda va iqtisodiy manfaat uyg‘unlashgan holda Markaziy Osiyo va AQSH o‘rtasidagi aloqalarda yangi sahifa ochilmoqda. O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib kelgan. Vashingtondagi uchrashuvlar esa bu yo‘nalishning amaliy natijasi sifatida tarixda qoladi.

Yangi bitim va kelishuvlar ikki davlat uchun iqtisodiy o‘rinish, barqarorlik va ishonch muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Demak, Markaziy Osiyo va AQSH muloqoti nafaqat diplomatik formatda, balki yangi iqtisodiy dunyo tartibining muhim pog‘onasi sifatida shakllanmoqda. Bu esa O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi yangi bosqichga ko‘tarilganidan darak beradi.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Farg‘ona davlat universiteti rektori

O‘SISH, O‘ZGARISH VA O‘ZLIK YO‘LI

namoyon etdi. Bir vaqlar O‘zbekiston yetakchi davlatlar bilan hamkorlikni orzu qilardi. Achchiq bo‘lsa ham tan olish kerak, ko‘plab eshiklar biz uchun ochilmasdi. So‘nggi yillardagi islohotlar esa barchasini tubdan o‘zgartirdi. Masalan, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berildi. Natijada o‘zbek paxtasi dunyodagi ko‘plab nufuzli kompaniyalarning “qora ro‘yxati”dan chiqarildi. “Cotton campaign” tashkiloti O‘zbekistonga qo‘yilgan taqiqni butunlay bekor qildi. Yevropa Itifoqi mamlakatimizga ushbu siyosiy tuzilma davlatlari bozoriga imtiyozli kirib borish imkonini beradigan GSP+ tizimini taqdim etdi. Milliy mahsulotlarimiz uchun 27 ta yangi bozor ochildi. Birgina Yevropaga eksport 5 karra oshib, qiymati 1,5 milliard dollarga yetdi.

Ha, endi dunyo ishblamnonlari, yetakchi davlatlarning ishonchli vakillari yangi O‘zbekistonga talpinmoqda. Borganimizda eng aziz mehmon sifatida kutib olyapti. Bunga Prezidentimizning AQSHga safarida ham, boshqa davlatlarga tashriflarida ham ko‘p bora guvoh bo‘ldik. Ana shu ishonch va hurmat belgisi UNESCOning 43-sessiyasi Samarqandda o‘tkazilishida ham o‘z aksini topdi.

Bugun xalqaro maydonda ziddiyatlar avj olgan. Ko‘rib turibmiz: dunyoda ikki xil standartda ishlash odatiy holga aylandi. Ana shunday vaziyatda yangi O‘zbekiston umuminsoniy g‘oyalarni ilgari surib, barcha nizolarni tinch, diplomatik yo‘l bilan hal etishga chorlab kelyapti. Fikrimizni UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ilk bor O‘zbekistonda o‘tkazilayotgani ham tasdiqlaydi. Dunyoda ziddiyatlar avj olgan davrda Markaziy Osiyo muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy makonga aylandi. Mutaxassislar fikricha, mintaqamiz geografiya, sivilizatsiya, resurs nuqtayi nazaridan kuch markazlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatda “yumshoq kuch”dan muhim element sifatida samarali foydalanmoqda. Ya‘ni o‘zaro hurmat, qadriyat, san‘at va an‘analar almashinuvi asosida ish ko‘rilmog‘da.

Turli ziddiyatlar avj olganida Zamaxshariy ilmiy asosda bularga chek qo‘ygandi. Yoki “Avesto” ham tushunmovchiliklarga barham bergan edi. Bugun yurtimizning ana shunday boy madaniy merosi yana bir bor dunyo ahlini o‘ziga qaratmoqda. UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi va uning doirasidagi tadbirlarda ishtirok etayotgan chet ellik mehmonlar Samarqandda jam bo‘ldi. Bundan tashqari, ishtirokchilar Toshkent, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarida madaniy tadbirlarda ishtirok etmoqda. Tabiiyki, Islom sivilizatsiyasi markazini ham ko‘zdan kechirishdi. Ana shunda ular yangi O‘zbekiston minbarida yangrayotgan TINCHLIK va DO‘STLIK DIPLOMATIYASI amaliy qiyofa kasb etayotganiga amin bo‘lmoqda.

Ha, daryolar gohida to‘lib-toshib, boshqa yo‘l axtaradi. Tag‘in yana o‘zining qadimiy o‘zaniga qaytadi. Insoniyat ham qanchalik o‘zligidan uzoqlashmasin, baribir yorug‘likka, ajdodlari yoqib ketgan ezgulik mayog‘iga talpinaveradi.

Yana bir achchiq haqiqatni tan olish zarur. Dunyo bugun asl qiyofasini ochib bormoqda. Undagi do‘stlik ham, hamkorlik ham nihoyatda nisbiy tushuncha ekani sir emas. Bunday do‘stlik va hamkorlikni saqlab qolish



Yangi O‘zbekistondagi islohotlar haqida ayrim chizgilar



uchun ezgu g‘oya, iqtisodiy barqarorlikning o‘zi yetarli emas. Qalbi o‘sha ezgulik bilan sug‘orilgan, vatan, xalq manfaati uchun xizmat qiladigan malakali kadrlar, ilm va tafakkurda boshqalardan bir qadam oldinda bo‘lgan jamiyat ham zarur.

Bunday natijaga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yurtimizda yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga katta e‘tibor berilib, barcha soha isloh etilmog‘da. Qolaversa, muammolarni mahalladan chiqmay turib hal etish tizimi yaratildi. Bu tizim davrga mos tarzda yana isloh etilyapti. Shu o‘rinda bir hayotiy voqeani eslab o‘tsam. Uyg‘a u-bu narsa olish uchun do‘konga kirdim. Sotuvchi men bilan hisob qilayotib, telefonining ovozi bilan talatib gaplasha boshladi. Narigi tomondan taxminan 12-15 yashar o‘spirinning ovozi eshitildi: “Dada, o‘qishga keldim. Oyiga million so‘m ekan, tishmini davolatib bo‘lgach, boraman-a?!”.

Suhbatdan bildimki, bola qo‘shimcha darsga qatnamoqchi. Ayni paytda tishini ham davolatayapti. Bu birovning do‘konida oddiy sotuvchi bo‘lib ishlaydigan otasi uchun yaxshigina chiqim degani. Shu bois, bola otasining iqtisodiy ahvolini o‘ylab, “Keyinroq qatnay boshlayman”, degandi. Otasi qat‘iy ohangda “Hozir borasan!” dedi. Bu suhbatdan ko‘nglim yorishib, hisobni to‘lab tashqariga chiqdim. Bir qarashda oddiy gap. Ammo bu yerda ikki qahramon bor. Biri iqtisodiy vaziyati qanday bo‘lmasin, bor kuch-g‘ayratini sarflab bolasiga yaxshi ta‘lim berishga urinayotgan ota!

Ikkinchisi, otaning vaziyatini to‘la idrok etib, unga yordam bo‘lishi uchun o‘zi orzu qilgan joyda ta‘lim olishni bir muddat kechiktirishga shay farzand!

Axir jamiyat mana shunday otalar va bolalar sabab yuksaladi.

Keyingi yillarda farzandining sifatli ta‘lim olishini istaydigan yurtodoshlarimiz safi kengaydi. Muhimi, endi diplom olsang bo‘ldi degan qarash o‘zgardi. Ular kelajak uchun puxta bilim va yaxshi kasb tanlash muhim ekanini angladi. Shu bois, yil sayin xususiy bog‘chalar qamrovi kengayib bormoqda. Ular orasida o‘ziga xos raqobat ham paydo bo‘la boshladi. Buni ta‘limning keyingi bosqichlarida ham ko‘rish mumkin. Chunki yaqin kelajakda nafaqat kadrlararo, balki inson va sun‘iy zehn orasida ham ish uchun raqobat paydo bo‘lishini anglab yetdik.

Hayotimizga kompyuter va internet kirib kelgan ilk yillarni esga oling. Milliy

Ha, endi dunyo ishbilarmnonlari, yetakchi davlatlarning ishonchli vakillari yangi O‘zbekistonga talpinmoqda. Borganimizda eng aziz mehmon sifatida kutib olyapti. Bunga Prezidentimizning AQSHga safarida ham, boshqa davlatlarga tashriflarida ham ko‘p bora guvoh bo‘ldik. Ana shu ishonch va hurmat belgisi UNESCOning 43-sessiyasi Samarqandda o‘tkazilishida ham o‘z aksini topdi.

matbuotimiz sahifalari ularning xataridan ogoh etadigan chiqishlar bilan to‘lib toshgan edi. Yaxshi eslayman: o‘sha davrda kompyuterda kitob o‘qishni tanqid qilganlar ham bor edi. Demoqchimanki, ijodkor ziyolisi kompyuterda hissiyot yo‘q, ijodni qo‘lda qalam bilan yozish kerak deyishgacha borgan jamiyatda qanday o‘sish va o‘zgarish bo‘lishi mumkin?!

Bugun esa dunyoqarashimiz tubdan o‘zgardi. Hozirgi kitobxon avlodning deyarli barchasi elektron kitob o‘qib, tinglayapti. Sun‘iy intellekt hayotimizga kirib kelgach, tezda u bilan hamqadam bo‘lish kerak ekanini angladik. Yurtimizda bu borada ham muhim qadamlar tashlanyapti. Chunki bugun dunyo taraqqiyotini sun‘iy intellektsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shu kunlarda bir yaxshi xabarga duch keldim. Endi muhandislik yo‘nalishi bo‘yicha respublika ko‘rik-tanlovi g‘oliblari AQSHdagi “Silikon vodiysi” va nufuzli MIT universitetiga stajirovkaga borishi mumkin. Agar tashabbus amalga oshsa, yosh muhandislarimiz MIT va “Silikon vodiysi”da tajriba o‘rtirib, Google, Tesla, NVIDIA, Meta kabi kompaniyalar muhitida loyihalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega

bo‘ladi. Bunday quvonchli xabarlar kishiga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi. Chunki dunyoda hech qachon mag‘lub bo‘lmaydigan kuch bilim va tafakkurdir. U iqtisodiyotni barqaror qiladi. Barcha muammoga zamonaviy yechim beradi. XXI asrda bu har doimigdan ham muhim. Masalan, yil boshida 2030-yilga borib, dunyo iqtisodiyotida sun‘iy intellekt qiymati 15 trillion dollarga yetishi prognoz qilingan edi. Hozirgi tahlillar bu raqam 20 trillion dollardan oshishini ko‘rsatyapti. Shuning o‘ziyoq sun‘iy intellektning hayotimizga qanchalik jadal kirib kelayotganini isbotlaydi.

Yurtimizda bu borada ham muayyan ishlar bajarilgan. Xususan, sun‘iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha qaror qabul qilinib, sohaning huquqiy asoslari yaratildi. Qisqa muddatda davlat xizmatlari, bank-moliya, jamoat xavfsizligi, transport kabi yo‘nalishlarda 30 dan ortiq pilot loyiha ishga tushirildi. Bundan tashqari, Sun‘iy intellektni 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Raqamli texnologiyalar vazirligida



mazkur soha bilan shug‘ullanadigan alohida markaz tashkil etildi. Bu kabi yangilanishlar natija bera boshladi. Mamlakatimiz bir yilda sun‘iy intellektga tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro indeksda 17 pog‘ona yuqoriladi. Shu tariqa dunyoda 70-o‘rin, Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egalladik. E‘tiborlisi, bu borada istiqbolli loyihalar yurtimizni yanada rivojlantirishi mumkin. Chunki mamlakatimizda 2030-yilda sun‘iy intellektga asoslangan xizmatlar ko‘rsatish qiymatini 1,5 milliard dollarga yetkazish reja qilingandi. Xorijiy ekspertlar esa yangi O‘zbekistonning salohiyatini 10 milliard dollarga baholamoqda. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin: sun‘iy intellekt qanday qilib iqtisodiy foyda keltiradi?

Masalan, adliya, soliq idoralari sun‘iy intellekt yordamida 24/7 rejimida onlayn maslahat tizimini ishga tushirgan. Bojxona qo‘mitasida esa sun‘iy zehn asosida xavfni boshqarish tizimi ishlayapti. Bular ishchi

kuchini optimallashtirish, murojaatchilarning vaqtini tejash kabi foyda keltiradi. Barchasi foydali ish ko‘effitsiyentiga aylanadi. Yoki geologiyada ham sun‘iy intellekt yordamida videotahlil tizimi yo‘lga qo‘yilib, rudadan olinadigan metall hajmini 1-2 foiz oshirish bo‘yicha loyiha tayyorlanyapti. Bu birgina mis qazib olishning o‘zidan yiliga 20 million dollar qo‘shimcha daromad keltiradi. Sun‘iy intellekt hatto rivojlangan mamlakatlarning mudofaa, xavfsizlik tizimida ajralmas qismga aylandi. Ha, XXI asrning eng istiqbolli sohasi sun‘iy intellektdir. Ayni damda inson omilini kamaytirish orqali ish o‘rinlarini qisqartirib, tengsiz raqobatchi bo‘ladigan ham aynan u.

Bir paytlar insonlarni boshqarish uchun mafkuraviy kurashlar ketayotganini bot-bot takrorlardik. Bugun sun‘iy intellekt sabab bu mavzu chekindi. Chunki endi mafkuraviy kurash uchun kimningdir dunyoqarashini o‘zgartish unchalik ham shart bo‘lmay qoldi. Endi inson aqli va qalбини egallash uchun qo‘lidagi texnologiyalarni boshqarish yetarli. Bugun xalqimiz orasida ta‘limga e‘tibor qanchalik kuchaygan bo‘lmasin, bunday kelajakka qanchalik tayyormiz degan savol har birimizni o‘ylantirishi kerak. Mamlakatimizda mana shunday imkoniyatlar eshigi ochilgan bir paytda sun‘iy zehn bilan raqobat qila olish, xalqaro maydonda talab etilayotgan yuksak bilim, keng dunyoqarash va tafakkurga ega jamiyat bo‘lishga qanchalik shaymiz? Umuman, yaqin kelajakni tasavvur qila olamizmi?

Nazarimda, barchamiz ham bunga to‘liq tayyor emasmiz. Fikrimizni davlat rahbari boshchiligidagi o‘tkazilgan yig‘ilishda mahallalardagi ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi bo‘yicha yechim topilishi kerak bo‘lgan qator masalalar ko‘rsatib o‘tilgani ham tasdiqlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarni kuzating. Deyarli har kuni oilaviy janjal, ajrashishlar, aliment to‘lashdan bo‘yin tovlagan otalar haqida xabar chiqadi. Hatto oilasi va bolalarini kredit qarzi bilan tashlab ketish holatlari uchrayapti. Yoki yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi va erta nikohlarning salbiy oqibatlaridan hamon saboq chiqarmayapmiz. Boz ustiga dabbabali to‘ylarning adog‘i ko‘rinmaydi. Iqtisodiy

taraqqiyot davrida mehnat munosabatlari sohasida yangi shakllar ommlalashtiryapti. Masalan, hozir yurtodoshlarimiz AT dasturchisi, veb-dizayner, hunarmand, taksi haydovchisi, kuryer kabi o‘nlab kasblarda platformali bandlik asosida ishlamoqda. Masofadan turib mehnat qilish odatiy tusga aylanib bormoqda. Bunday natijalarga erishish uchun mahalla instituti tubdan isloh qilindi. Barcha darajadagi rahbarlar eng quyi bo‘g‘inga tushib ishlaydigan xalqchil tizim yaratildi. Birgina misol: 1,5 million oila o‘z xonadonida ishlab, daromad olmoqda. Bunga esa yangi tizim — mahallalarni drayver sohalarga ixtisoslashtirish orqali erishildi. Bundan tashqari, “mahalla yetilligi” harakati bilan qanchadan-qancha yurtodoshimiz bepul kasb-hunarga o‘qib, ishli bo‘lmoqda. Kredit, subsidiya, kompensatsiya, moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ziyod xizmat mahalla darajasiga tushirildi. Shuning hisobiga 7,5 million fuqaro kambag‘allikdan chiqdi. Ishsizlik 2 barobar qisqardi. Shuningdek, 3,5 ming mahalla yuqofasi zamonaviy ko‘rinishga keldi.

Muhimi, bunday islohotlar ortga qaytmas tus oldi. Prezidentimiz qaroriga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston ruhi kirib borishi kerak bo‘lgan 33 ta tuman va 330 ta og‘ir mahalla belgilab olindi. Bu tumanlarning har biriga 100 milliard so‘mdan, 330 ta mahallaning har biriga esa 5 milliard so‘mdan mablag‘ ajratiladi. Jahon banki va Islom taraqqiyot bankidan jalb qilingan 100 million dollar ham mazkur maqsadlarga qaratiladi. Bundan tashqari, ushbu tuman va mahallalardagi “drayver” loyihalar infratuzilmasi uchun yana 2 trillion so‘m beriladi. Qolaversa, mahallalar byudjetiga 2026-yildan boshlab har yili 200 milliard so‘mdan ajratiladi. Umuman, ushbu manbalar hisobidan kelgusi bir yil uchun 2000 ta mahallaga qo‘shimcha 8,5 trillion so‘m mablag‘ beriladi. Ushbu islohotlarning barchasi bir maqsadga — inson qadrini ulug‘lash, xalqimiz farovon va tinch yashashini ta‘minlashga qaratilgan. Shu orqali har bir mahalla ahli yangi O‘zbekiston ruhini o‘z hayoti misolida his etadi.

Tarixdan yaxshi ma‘lum: jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalarning barchasi mahallada hal etilgan. Oqsoqollar, mahalla kayvonilari boylarni insofqa chaqirib, kambag‘allarga homiylik qildirgan. Ishsizlarni hunarmandga yo‘llab, ustoz-shogird maktabini mustahkamlagan. Hozirgi “mahalla yetilligi” ana shu vazifalarni zamonaviy shaklda bajaryapti. Buning uchun ularga iqtisodiy, huquqiy imkoniyat va asos yaratib berildi. Shu o‘rinda Abu Nasr Forobiyning “Afloton qonunlari mohiyati” asari yodga tushadi. Unda ulug‘ ajdodimiz “Chinakam qonun o‘rnatuvchi yangi qonun qabul qilayotganida uning mamlakatdagi barcha tabaqalar va avlodlarga, barcha viloyatlarning aholisiga baxt-saodat, shod-xurramlik keltirishini hisobga oladi”, deb yozadi. Forobiy fikrini davom ettirib, oqil rahbar qabul qilgan qonunlar odamlar iste‘dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilishni ta‘kidlaydi. Bobomiz moziydan turib mamlakatimizdagi inson qadri uchun olib borilayotgan islohotlar mohiyatini ochib berganday go‘yo.

Bugun dunyo tubdan o‘zgardi. Bir vaqlar fantastik asarlarda aytilgan texnologiyalar hayotimizga kirib keldi. Hatto robotlar jarrohlik qilayapti. Sun‘iy zehn bilan gaplashib, dardlashadigan odamlar ham paydo bo‘ldi. Buni sanayversak barmog‘ yetmaydi. Ammo bir o‘zgarma haqiqat bor. Bu ham bo‘lsa, inson, uning tafakkuri, mehriq ehtiyoj hech qachon so‘nmaydi. Bu ehtiyojni qondirish uchun esa ana shu texnologiyalardan bir qadam oldinda bo‘lishimiz lozim. Zero, yangi O‘zbekiston ko‘zlagan manzil — Uchinchi Uyg‘onish davri oldimizga ana shunday ulkan vazifalarni qo‘yadi.



Har bir jamiyatning yetukligi va quvvati aʼzolariga qanday imkoniyatlar eshigini ochishi bilan oʻlchanadi. Olis qishloqda, oddiy oilada dunyoga kelgan iqtidorli yoshning eng yuksak choʻqqilarni zabt etishi yoki poytaxtda barcha sharoit muhayyo qilingan oʻspirinning oʻz salohiyatini roʻyobga chiqara olmasligi —bularning barchasi ijtimoiy mobillik, yaʼni jamiyatdagi vertikal harakatlanishning yorqin ifodasidir. Mazkur jarayon shunchaki ayrim shaxslar taqdiri bilan bogʻliq hodisagina emas, aksincha, davlatning ertangi kuni, raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Zero, inson qadri ulugʻlangan jamiyatda har bir fuqaro kelib chiqishidan qatʼi nazar, halol mehnati va iqtidori bilan yuksak marralarga erisha olishi lozim. Aynan shunday jamiyatgina chinakam adolatli va qudratlidir.

Mulohaza



Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mamlakatimiz oʻz tarixining turli bosqichlarida ijtimoiy yuksalishning oʻziga xos modellari boshdan kechirgan. Sobiq tuzum davrida insonning ijtimoiy mavqei asosan partiyaviy mansublik yoxud rejali iqtisodiyot belgilab bergan qoliplar orqali aniqlanar edi. Unda shaxsiy tashabbuskorlik va tadbirkorlikka deyarli oʻrin qoldirilmagan, ijtimoiy “lift”lar esa qatʼiy mafkuraviy-maʼmuriy tizim nazoratida edi. Mustaqillikning ilk yillari esa butunlay yangi, ayni chogʻda munozarali imkoniyatlar ufqini ochdi. Eski tizimning yemirilishi va bozor iqtisodiyotining shakllanishi jarayonida “uddaburonlik”, boshlangʻich kapital hamda shaxsiy aloqalar kabi omillar asosiy oʻringa koʻtarildi. Afsuski, oʻsha davrda jamiyatda keskin ijtimoiy tabaqalanish yuz berib, yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi tengsizliklar ham vujudga keldi.

Soʻnggi yillarda qatʼiy siyosiy iroda tufayli amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar ijtimoiy munosabatlarni tizimini, jumladan, ijtimoiy mobillik mexanizmlarini tubdan oʻzgartirishga qaratilgan bilan tarixiy ahamiyatga ega. Yangi Oʻzbekiston sharoitida insonning jamiyatdagi oʻrni belgilovchi anʼanaviy yoʻllar kengayib, mutlaqo yangilari shakllanmoqda. Xoʻsh, bugun yuksalishning asosiy omillari nimalardan iborat va oqilona siyosat natijasida ishga tushirilgan “lift”lar qanchalik samarali faoliyat yuritmoqda? Ushbu savollarga javob izlash va muammolarning yechimini topish orqali islohotlarga kamarbasta boʻlish bugunning dolzarb vazifalaridan.

Taʼlimni rivojlantirishga qaratilgan puxta oʻylanigan siyosat tufayli ushbu soha har qachongidan ham koʻra inson kapitaliga kiritilgan eng ishonchli sarmoyaga hamda ijtimoiy yuksalishning poydevoriga aylanmoqda. Bugun oliy taʼlim muassasalariga qabul kvotalarining bir nechta barobar oshirilgani, nufuzli xorijiy universitetlar filiallari va xususiy oliygoʻhlarining ochilishi minglab yoshlarga oliy maʼlumot olish uchun ilgari mavjud boʻlmagan imkoniyatlarni yaratdi. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan va ijod taʼlim muassasalari tarmogʻining kengayishi esa iqtidorli yoshlarni erta aniqlab, salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun muhim zamin hozirlamoqda. Shu bilan birga, masalaning ikkinchi jihatini ham eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi. Shahar va qishloq maktablari oʻrtasida taʼlim sifati borasidagi tafovut hamon saqlanib qolayotgani ham bir muammo. Buni bartaraf etish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish zarur. Repetitorlik xizmatlarining keng yoyilishi va unga talabning ortishi esa oliy taʼlimga oʻqishga kirish imkoniyatini oilaning moddiy ahvoriga tobora bogʻlab qoʻymoqda. Shu bois, taʼlim tizimidagi islohotlarning pirovard maqsadi davlatimiz belgilab bergan vazifalarga hamohang ravishda, diplomli mutaxassislar sonini oshirishgina emas, balki har bir bitiruvchining mehnat bozorida oʻz oʻrnini topadigan raqobatbardosh kadr

sifatida shakllanishini taʼminlashdan iborat boʻlishi lozim.

Iqtisodiy erkinlik va tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan faol qoʻllab-quvvatlanishi ijtimoiy yuksalishning harakatlaniruvchi yana bir qudratli kuchidir. Bugun biznesni roʻyxatdan oʻtkazish jarayoni misli koʻrilmagan darajada soddalashtirilgani, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligi uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalarni ajratilayotgani koʻplab faol insonlarning oʻz ishini yoʻlga qoʻyib, nafaqat oʻzini, balki boshqalarni ham ish bilan taʼminlashiga imkon yaratmoqda. Oʻzining innovation gʻoyasi, tirishqoqligi va mehnati bilan kichik sexdan yirik korxonagacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtayotgan zamonadoshlarmiz — yangi davrning, yangi Oʻzbekistonning haqiqiy qahramonlari. Lekin iqtisodiy maydondagi barcha ishtirokchi uchun mutlaqo sogʻlom muhit yaratildi deb aytishga hali bir oz erta. Baʼzan uchraydigan korruptsiya holatlari, ayrim imtiyoz resurslaridan foydalanishdagi murakkabliklar va aksariyat sohalaridagi nosogʻlom raqobat muhiti kabi oʻtmishdan qolgan illatlar halol tadbirkorning yoʻliga gʻov boʻlishi mumkin. Shunday ekan, iqtisodiyotni liberallashtirish siyosatini izchil davom ettirib, barcha uchun adolatli qoidalarni yaratishga qaratilgan amaliy qadamlar muntazam mustahkamlanmoʻgʻi dardkor.

Davlat xizmati azaldan jamiyatda yuqori maqom va barqarorlik ramzi sifatida qabul qilingan. Bu sohadagi yuksalish esa koʻp hollarda insonning butun hayot yoʻlini belgilab bergan. Davlat xizmatini rivoj-



lantirish agentligining tashkil etilishi va davlat idoralariga ishga qabul qilishda ochiq tanlovlarni tizimini joriy etishdagi saʼy-harakatlar meritokratiya, yaʼni munosiblar boshqaruviga oʻtish yoʻlidagi tarixiy qadamlardir. Endi bilim, salohiyat va vatanparvar yoshlarning nafaqat quyi boʻgʻinlarda, balki yuqori lavozimlarda ham faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayrim hollarda jamiyat tafakkurida chuqur ildiz otgan tanish-bilishchilik va mahalliylik kabi illatlar bu sohadagi islohotlar samarasiga soya solib turgan asosiy toʻsiqlar boʻlib qolayotir. Zero, nomzodning malakasi va salohiyati emas, balki uning kimga yaqinligi yoki qaysi hududdan ekani ham qiluvchi ahamiyat kasb etadigan har qanday holat davlat boshqaruvi sifatiga putur yetkazish bilan birga minglab iqtidorli yoshlarning davlatimiz yuritayotgan adolatli siyosatiga boʻlgan ishonchiga putur yetkazadi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida raqamli texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari



sohasi eng tezkor ijtimoiy “lift”ga aylanib ulgurd. Qoraqalpogʻistonning olis tumanida yashayotgan yigitning Yevropa yoki AQSH kompaniyalariga masofadan turib dasturlash xizmatini koʻrsatishi, yosh dizayner qizning oʻz ijodiy ishlarini xalqaro onlayn platformalarda sotib, yuqori daromad topishi — bular davlatimiz yaratib berayotgan sharoitlar tufayli hayotiy haqiqatga aylandi. Mazkur soha geografik chegaralarni yoʻqqa chiqarib, insonga oʻz bilimi va koʻnikmalarini bevosita global bozorga olib chiqish imkonini beradi. Ayni shu

sababli AT parklari va raqamli texnologiyalar boʻyicha oʻquv markazlari tarmogʻini butun mamlakat boʻylab kengaytirish, hududlarda yuqori tezlikdagi internet infratuzilmasini yaratish va yoshlarning xorijiy tillarni oʻrganishiga qulay sharoit hozirlash milliy taraqqiyotning muhim yoʻnalishlaridan biriga aylanishi zarurliq davlatimiz siyosatida alohida belgilangan.

Ijtimoiy mobillikning yana bir murakkab, ammo keng tarqalgan shakli tashqi mehnat migratsiyasidir. Koʻplab yurtdoshlarmiz uchun xorijda ishlash oilasini tebratish, turmush sharoitini yaxshilash va farzandlarining kelajagiga sarmoya kiritishning asosiy manbai boʻlib xizmat qilmoqda. Mehnat migrantlari yuborgan mablagʻlar evaziga qishloqlarda yangi uyqlar qad rostlamoqda, toʻylar oʻtkazilmoqda, hatto kichik tadbirkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu maʼnoda, migratsiya koʻplab oilalar uchun kambagʻallikdan chiqishning

samarali vositasiga aylangan. Biroq ushbu jarayon mamlakat uchun jiddiy chaqiriqlarni ham yuzaga keltiradi va hukumatimiz buni hal etish yoʻlida muhim ishlarni bajarmoqda. Eng avvalo, intellekt va ishchi kuchining chetga chiqib ketishi milliy iqtisodiyotning rivojlanish surʼatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Qolaversa, migratsiyadan qaytgan fuqarolarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi, xorijda oʻrtirgan tajribasi va mablagʻini mamlakatimizda samarali biznesga yoʻnaltirishi uchun tizimli sharoit yaratish masalasi ham yechimini kutayotir. Bu borada aniq dasturlar ishlab chiqilayotgani quvonarli holat.

Yuqoridagi tahlillarga qoʻshimcha ravishda ijtimoiy yuksalishga taʼsir etuvchi koʻzga koʻrinmas, biroq gʻoyat muhim ijtimoiy-madaniy omillarni ham hisobga olish joiz. Mahalla instituti hamda ijtimoiy va madaniy kapital tushunchalarini ham shular qatoriga kiritish mumkin. Hozir jamiyatda mahalla institutining roli kuchaytirilib, haqiqiy xalqchil tuzilmaga aylantirilmoqda. Kam taʼminlangan oilalarga koʻmaklashish, yosh tadbirkorlarga madad berish yoki yolgʻiz keksalar holidan xabar olish kabi vazifalari orqali u quyi qatlam vakillariga yordam qoʻlini choʻzadi. Ayni vaqtda mahallaning qaror qabul qilish jarayoni har doim xolis va shaffof kechishini taʼminlash muhim masaladir. Baʼzan mahalliy tanish-bilishchilik, subyektiv yondashuvlar ustun kelib, haqiqiy muhtoj yoki iqtidorli insonlar eʼtibordan chetda qolishi, aksincha, imkoniyatli borlar qoʻshimcha imtiyozga ega boʻlishi holatlari uchrayotganiga ham koʻz yumib boʻlmaydi. Natijada mahalla ayrim vaziyatlarda ijtimoiy holatni mustahkamlovchi, meritokratiya tamoyillariga zid islovlarni institutga aylanib qolishi turgan gap. Shu bois, bu institut faoliyatida shaffoflikni muntazam taʼminlash ayni muddao.

Bundan tashqari, oliy maʼlumot haqidagi diplom yoki kasbiy malakadan tashqari, madaniy kapital ham insonning yuksalishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ziyoli oilada, kitoblar va intellektual suhbatlar qurshovida ulgʻaygan bolalarning dunyoqarashi, nutq madaniyati, oʻzini tutishi va tanqidiy fikrlash qobiliyati tabiiy ravishda boshqacha shakllanadi. Ular uchun ziyoli davrlarga kirib borish, martabali shaxslar bilan muloqot oʻrnatish va oʻz gʻoyalarni ishonchli taqdim etish ancha oson kechadi. Aksincha, bunday muhitda oʻsmagan iqtidorli yoshlar, garchi bilimli boʻlsa-da, oʻziga ishonchsizlik, yangi ijtimoiy muhitda oʻzini

begonadek his qilish kabi psixologik toʻsiqlarga duch kelishi ehtimoli bor. Shu sababli davlatimiz yuritayotgan siyosatning muhim yoʻnalishi nafaqat formal taʼlim berish, balki barcha qatlamdagi yoshlarda oʻziga ishonch, yetakchilik qobiliyati va keng dunyoqarashni shakllantiradigan inklyuziv muhit yaratishni ham taqozo etadi.

Ijtimoiy zinapoyadan yuqorilashning psixologik jihatlari ham alohida eʼtiborga molik. Oʻz mehnati bilan yuqori mavqega erishgan inson koʻpincha ikki olam oʻrtasida qolganek his qiladi. U oʻzining eski ijtimoiy muhitidan bir oz uzilib qoladi, ammo yangi muhit ham uni har doim toʻlaqonli qabul qilavermaydi. Bu esa shaxsiyatdagi ichki ziddiyatlarga, oʻz ildizlaridan uzqolashish va yolgʻizlik hissigacha sabab boʻlishi mumkin. Qolaversa, uning zimmasiga butun oilasi, urugʻ-aymogʻining umidlari yuklanadi. Muvaffaqiyatsizlikka uchrash qoʻrquvi, erishilgan mavqeni yoʻqotib qoʻymaslik uchun doimiy kurash insonning haddan tashqari ruhiy zoʻriqlashiga olib kelishi tabiiy. Demak, ijtimoiy mobillikni qoʻllab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy va taʼlimiy, balki psixologik koʻmak dasturlarini ham qamrab olmoʻgʻi dardkor va bu borada ham amaliy ishlar boshlangan.

Yuqorida sanab oʻtilgan barcha imkoniyatlar va “lift”larning samarali ishlashiga xalal berayotgan umumiy va eng katta toʻsiq korruptsiyadir. Ushbu illat bejiz “milliy taraqqiyotimiz kushandasi” deb atlamogʻda. U xuddi zang kabi ijtimoiy yuksalishning barcha mexanizmlarini yemirib, adolatli ishlashga yoʻl qoʻymaydi. Taʼlimdagi poraxoʻrlilik, biznesdagi yashirin kelishuvlar, mansabga tayinlashdagi suisteʼmliklar ijtimoiy adolatga kuchli zarba beradi. Poytaxt va hududlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi muayyan tafovut esa imkoniyatlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi yana bir jiddiy omildir. Toshkentdagi yoshlar uchun oddiy hol sanalgan sifati taʼlim, zamonaviy kasb-hunar oʻrganish va madaniy hordiq chiqarish imkoniyati olis tumanlardagi yigit-qizlar uchun orzu boʻlib qolmasligi lozim. Davlatimiz rahbarining hududlarni rivojlantirishga qaratayotgan ulkan eʼtibori aynan mana shu tengsizlikka barham berishga qaratilgan va bu yoʻlida butun millat salohiyatini toʻliq safarbar etish mumkin.

Ijtimoiy mobillik tahlilini gender tenglik omilisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Jamiyatning yarmidan koʻpini tashkil etuvchi xotin-qizlarning yuksalish yoʻlidagi imkoniyatlarini kengaytirish — davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan. Qonunchilikda teng huquqlar kafolatlangan va ayollarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha tarixiy qarorlar qabul qilingan boʻlsa-da, amalda aksariyat hollarda ular hanuz koʻrinmas toʻsiqlarga duch kelayotir. Ilgari “ayolning asosiy vazifasi — oila va roʻzgʻor ishlari bilan shugʻullanish” degan eskicha stereotiplar xotin-qizlarning kasbiy yuksalishiga toʻsqinlik qilardi. Rahbarlik lavozimiga nomzod tanlashda koʻpincha erkaklarga ustunlik berilardi. Shuningdek, ayollar zimmasidagi “ikki smenali” mehnat — ham ishxonadagi vazifalar, ham uy-roʻzgʻor yumushlari ularning oʻz ustida ishlashi, malakasini oshirishi uchun vaqt va kuch qoldirmas edi. Bugunga kelib, xotin-qizlar tadbirkorligini ragʻbatlantirish, ularni boshqaruv lavozimlariga faol jalb etish va jamiyatda ayni madaniyatni shakllantirish — ijtimoiy adolatni taʼminlashning ajralmas shartiga aylangan va bu borada tanlangan yoʻl toʻgʻri ekani isbotini topmoqda.

Tahlilning keyingi qatlami global maydondagi jarayonlar bilan bogʻliq. Bugun dunyoda nafaqat tovarlar va kapitallar, balki isteʼdodlar uchun ham shiddatli kurash ketmoqda. Rivojlangan mamlakatlar Oʻzbekistonning eng iqtidorli dasturchilari, shifokorlari, muhandislari va olimlarini yuqori maosh, sifatli yashash sharoiti hamda kasbiy rivojlanish istiqbollari bilan faol jalb etmoqda. “Aqlar oqimi” muammosini endi shunchaki vatanparvarlikka daʼvat etish bilan hal qilib boʻlmaydi. Uni “aqlar sirkulyatsiyasi”, yaʼni isteʼdodlarning chet elda tajriba oʻrtirib, yangi bilim va kapital bilan Vatanga qaytib, rivojlanishga hissa qoʻshadigan tizimga aylantirish muhim vazifadir. Buning uchun esa mamlakatda isteʼdodlarni qadrlaydigan, gʻoyalarni qoʻllab-quvvatlaydigan, byurokratiyadan xoli, ijodiy va erkin muhit yaratish shart va bu boradagi islohotlar izchil davom etmoqda. Ayni harakatlarning yorqin misoli sifatida “El-yurt umidi” jamgʻarmasi faoliyatiga qaratilayotgan yuksak eʼtiborni aytib oʻtish mumkin.

Ijtimoiy yuksalish natijasida mamlakatda asta-sekin shakllanayotgan oʻrta sinf masalasi ham alohida diqqatni talab qiladi. Malakali mutaxassislar, kichik va oʻrta biznes egalari, axborot texnologiyalari sohasi vakillaridan tarkib topayotgan ushbu qatlam har qanday davlatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligi tayanichidir. Biroq ayni shu qatlamlarning kelajagi global texnologik oʻzgarishlar qarshisida ancha moʻtla boʻlishi mumkin. Sunʼiy intellekt va avtomatlashtirish jarayoni, birinchi navbatda, aynan oʻrta boʻgʻindagi koʻplab kasb egalari — hisobchi, bank xodimi, huquqshunos kabilarning ish oʻrnini yoʻq qilishi mumkin. Demak, bugun odamlarni kambagʻallikdan oʻrtahol darajaga olib chiqish qanchalik muhim boʻlsa, oʻsha oʻrta sinfni kelajakning iqtisodiy buhronlariga bardoshli qilib tayyorlash undanda zarur. Bu esa ertangi kun talablariga javob beradigan mutlaqo yangi koʻnikmalarni shakllantirishni taqozo etadi.

Taʼlim tizimining mazmunini muntazam qayta koʻrib chiqish, uni kelajakka moslashtirish hayot-mamot masalasiga aylanmoqda. Kelajakda avtomatlashtirib boʻlmaydigan, faqat insonga xos qobiliyatlarga qadrlanadi. Bular — tanqidiy va kreativ fikrlash, murakkab muammolarni yecha olish, hissiy intellekt, oʻzgalar bilan samarali muloqot va hamkorlik qilish kabi koʻnikmalardir. Hozirgi, asosan, maʼlumotni yodlashga odatlangan taʼlim tizimi bilan bunday avlodni tarbiyalash qiyin boʻlishi mumkin. Shuning uchun ham maktab va universitetlar oʻquvchilarni tayyor maʼlumotlarni takrorlashga emas, balki toʻgʻri savollarni qoʻyishga, axborot oqimidan keraklisini mustaqil ravishda ajratib olishga va nostandart yechimlar topishga oʻrgatishi kerak. Taʼlimga kiritilgan sarmoya kelajakda ijtimoiy larzalarning oldini oluvchi eng samarali investitsiya ekanini chuqur anglashimiz shart.

Bugungi Oʻzbekistonda yuritilayotgan oqilona siyosat natijasida ijtimoiy mobillik kanallari kengayib, yuksalish uchun imkoniyatlar koʻlami sezilarli darajada oʻsib bormoqda. Bilim olish, tadbirkorlik qilish, davlat xizmatida oʻsish yoki zamonaviy kasblarni egallash orqali hayotini yaxshilashga intilayotganlar safi kengaymoqda. Asosiy vazifa ana shu “ijtimoiy lift”larning uzluksiz va eng muhimi, adolatli ishlashini taʼminlashdan iborat boʻlib qolaveradi. Muammolari yoʻq emas, biroq ularni bartaraf etish uchun tanlangan yoʻl toʻgʻri va aniq. Buning uchun, avvalo, korruptsiyaga qarshi murosasiz kurashni davom ettirish, qonun ustuvorligini taʼminlash va barcha uchun teng raqobat sharoitini yaratish talab etiladi. Hududlardagi taʼlim va infratuzilma sifatini poytaxt darajasiga yaqinlashtirish, iqtidorli yoshlarni ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼi nazar, izchil qoʻllab-quvvatlash tizimini mustahkamlash lozim. Zero, har bir fuqaroning taqdiri uning qayerda va qanday oilada tugʻilganiga emas, balki aql-zakovati, mehnati va intilishiga bogʻliq jamiyatgina barqaror yuksaladi. Aynan shunday adolatli jamiyatni barpo etish — yangi Oʻzbekistonning bosh maqsadi va barchamizning umumiy, masʼuliyatli vazifamizdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
34685 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

OʻZa yakuni — 20:25

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05